

LABORATORIYA ISHI

Elektr zanjirida tok kuchi va kuchlanishni o'lchash

Maqsad: zanjirning turli qismlaridagi tok kuchi va kuchlanishni o'lchashni o'rganish.

Kerakli jihozlar: tok manbai, ampermetr, voltmeter, ikkita lampochka, kalit va ulovchi o'tkazgichlar.

Murvat	1-lampochka		2-lampochka	
	I_1 (A)	U_1 (V)	I_2 (A)	U_2 (V)
1				
2				
3				

Ishni bajarish tartibi

1. Tok manbai, ampermetr, voltmeter, lampochkalar va kalitdan iborat zanjirni yig'ing (4.52-rasm). Bunda voltmeter birinchi lampochkaning uchlariga ulanadi.

2. Tok manbaining iste'molchilarga kuchlanish beradigan murvatini 4 V holatiga qo'ying.

3. Kalitni ulang. Zanjirga ulangan ikkala lampochka ham yonadi, ampermetr va voltmeter ko'rsatishini qayd eting. Ularning qiymatlarini jadvalga yozing.

Izoh: voltmeter birinchi lampochka uchlaridagi kuchlanishni o'lchaydi.



4. Kalitni uzing. Voltmeter klemmalarini ikkinchi lampochkaning uchlariga ulang.

5. Kalitni ulang. Bunda lampochkalar yonadi, ampermetr va voltmeter ko'rsatishini qayd qiling. Ularning qiymatlarini jadvalga yozing.

Izoh: voltmeter ikkinchi lampochka uchlaridagi kuchlanishni o'lchaydi.

6. Kalitni uzing. Tok manbaining iste'molchilarga kuchlanish beradigan murvatini 6 V holatiga qo'ying. Tajribani yuqorida 3-, 4-, 5-bandda keltirilgandek takrorlang.

7. Tajriba natijalarini tahlil qiling va xulosa chiqaring.



4.52-rasm